

**“UzAuto Motors Powertrain” AJning ustav kapitalidagi 100% aksiyalar paketiga
egalik qiluvchi yagona aksiyadori “UzAuto Passenger Vehicles Management”
MChJning, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga kiradigan masalalar
bo‘yicha 48-2024/06-sonli qarori**

Toshkent sh.
A.Temur ko‘chasi, 13- uy.

2024 yil “17” iyul
soat: 11:00

“UzAuto Motors Powertrain” aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o‘rinlarda – Kompaniya) 2024 yil “17” iyul holatiga depo hisobvarag‘i ko‘chirmasiga asosan, Kompaniyaning 139 837 000 000 dona, ya’ni 100% aksiyalar paketi “UzAuto Passenger Vehicles Management” MChJga tegishli.

“Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi O‘zR Qonunining 58-moddasiga ko‘ra barcha oddiy aksiyalar bitta aksiyadorga tegishli bo‘lgan jamiyatda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilmaydi. Ushbu Qonun va Kompaniyaning Ustavi bilan aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qarorlar bunday aksiyador tomonidan yakka tartibda qabul qilinadi hamda yozma shaklda rasmiylashtiriladi.

Ushbu Qaror 2024 yil “17” iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Kompaniya ustaviga muvofiq yozma shaklda rasmiylashtirildi.

1. 2023-yil uchun MHXS va BHMS bo‘yicha tashqi auditor hisobotlarini ma’lumot uchun qabul qilish.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

1. 2023-yil uchun MHXS va BHMS bo‘yicha tashqi auditor hisobotlari mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2023-yil Biznes–reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan Bosh direktor (Kompaniya) hisobotini tasdiqlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

2. 2023-yil Biznes–reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi yuzasidan Bosh direktor (Kompaniya) hisoboti mazkur qarorning 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

3. 2023-yil uchun Kompaniya sof foydasini taqsimlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

3. 2024-yil 28-iyundagi 77-sonli Kuzatuv kengashi majlisining tavsiyasiga muvofiq Kompaniyaning 2023-yil uchun jami 233,552,635,859.40 so‘m sof foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin:

- Sof foydaning 25,75%ni (60,129,910,000 so‘m) har bir oddiy aksiya uchun dividend sifatida yagona aksiyadorga to‘lansin. Bunda har bir oddiy aksiya uchun dividend miqdori 0.43 so‘mni tashkil etadi;

- Sof foydaning qolgan 74,25%ni (173,422,725,859.40 so‘m) Jamiyatning taqsimlanmagan foydasi tarkibida qoldirilsin;

- Dividend to‘lashni boshlash sanasi etib 2024-yil 17-iyul va dividend to‘lashni tugash sanasi sifatida 2024-yil 16-sentabr belgilansin.

4. 2023-yil uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi hisobotini tasdiqlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

4. 2023-yil uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi hisoboti mazkur qarorning 3-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

5. Jamiyat Bosh direktori vakolatlarini uzaytirish.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

5. Kompaniya Bosh direktori Bo Inge Andersson vakolatlari 2024-yil 31-dekabrga qadar uzaytirilsin.

6. Kompaniyaning 2024-yil uchun Biznes-rejasini tasdiqlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

6. Kompaniyaning 2024-yil uchun Biznes-rejasi mazkur qarorning 4-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

7. Kompaniyaning yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash.

Qaror (139 837 000 000 ovoz, 100%):

7. Kuzatuv kengashi qarori (2023-yil 29-noyabrdagi 72-son) bilan oldindan rozilik berilgan Kompaniyaning yangi tashkiliy tuzilmasi mazkur qarorning 5-ilovasiga muvofiq tasdiqlansin.

Qaror 2024-yil 17-iyul kuni imzolangan.

«UzAuto Passenger
Vehicles Management»
MChJ Bosh direktori


B.B. Axunov



